



Irsoli masal she'riy san'ati

Jannat Tolipova Xasan qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti, Tarix va
filologiya fakulteti, O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishining 2-bosqich talabasi

e-mail: jannatnormatova@gmail.com

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti,
Toshkent, 100149, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada she'riyatda irsoli masal san'atining mohiyati, uning badiiy nutqdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Irsoli masal shoir yoki yozuvchi tomonidan maqollar, hikmatli so'zlar va xalq orasida keng tarqalgan iboralardan foydalanish orqali asarning ta'sirchanligini oshirish usuli ekanligi tushuntiriladi. Shuningdek, maqolada bu usulning zamonaviy she'riyatda qanday qo'llanilishi, uning adabiy-estetik va semantik funksiyalari haqida ham fikr yuritiladi. Maqola adabiyotshunoslar, talabalar va she'riyat bilan qiziquvchilar uchun foydali bo'lishi kutiladi.

Tayanch so'zlar: Irsoli masal, Mutannibiy, Abu Mansur as-Saolibiy, Alisher Navoiy, „Tarjuman ul-balog'a“, ibn Ebul-Isbo, Atoulloh Husayniy, Erkin Vohidov, masal, „G'aroyib us-sig'ar“.



Аннотация: В данной статье раскрывается сущность искусства наследственной притчи в поэзии, ее место и значение в художественной речи. Аллегорическая притча объясняется как способ поэта или писателя усилить воздействие произведения с помощью пословиц, мудрых высказываний и народных выражений. Также в статье рассматривается использование этого метода в современной поэзии, его литературно-эстетические и смысловые функции. Ожидается, что статья будет полезна литературоведам, студентам и всем, кто интересуется поэзией.

Ключевые слова: Ирсали масал, Мутанниби, Абу Мансур ас-Салиби, Алишер Навои, „Тарджуман уль-Балога”, Ибн Эбул-Исба, Атулла Хусайни, Эркин Вахидов, притча „Гарайиб ус-сигар”

Abstract: In this article, the essence of the art of hereditary parable in poetry, its place and importance in artistic speech is explained. An allegorical parable is explained as a way for a poet or writer to enhance the impact of a work by using proverbs, wise sayings, and popular expressions. The article also discusses how this method is used in modern poetry, its literary-aesthetic and semantic functions. The article is expected to be useful for literary scholars, students and those interested in poetry.

Key words: Irsali masal, Mutannibi, Abu Mansur al-Saalibi, Alisher Navai, „Tarjuman ul-Balog'a", Ibn Ebul-Isba, Atullah Husayni, Erkin Vahidov, parable, „Garayib us-sigar".

Kirish:

Adabiyot inson tafakkurining eng nozik va chuqur qatlamlariga ta'sir qiluvchi san'at turlaridan biridir. Ayniqsa, she'riyat fikr va hissiyotning uyg'unlashgan shakli bo'lib, unda



badiiy san'at vositalari muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, irsoli masal san'ati ham adabiyotda, ayniqsa, she'riyatda keng qo'llanadigan usullardan biridir. Irsoli masal - asarda xalq og'zaki ijodi namunalari, hikmatli so'zlar yoki maqollardan foydalanish orqali fikrning ta'sirchanligini oshirish yoki fikrni isbotlash, dalillash san'atidir. Ushbu uslub ijodkorning ma'naviy va madaniy boyligidan darak berib, o'quvchiga fikrini yanada aniq va obrazli yetkazish imkonini beradi. Ushbu maqolada she'riyatda irsoli masal san'ati, uning mohiyati va adabiy namunalardagi qo'llanilish xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Endi irsoli masal haqida chuqur o'rganadigan bo'lsak, bu san'at aynan qaysi asrdan boshlab vujudga kelgani haqida aniq dalil yo'q. Ammo bu san'atning ildizi juda qadimiy hisoblanib, antik yunon davri, balki undan ham avval deb hisoblasak ham bo'ladi. Biz irsoli masalni ko'proq temuriylar davrida (1370-1507) yozilgan asarlardan o'rganganmiz. Keling boshqa adabiyotlarga ham nazar tashlasak. Masalan, Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) mashhur arab tilshunosi, adabiyotshunosi va yozuvchi bo'lib, u Nishopurda (Eronning shimoli-sharqida, Xuroson viloyati) tavallud topgan. U „Irsoli masal“ terminini „Irodi masal“ deb ham ilk bor termin sifatida she'riy sanatlar orasiga kiritgan. Ammo u bu san'atga o'zi namunalari yozmasdan, arab adabiyotida eng yorqin iz qoldirgan 12 yoshida g'azal, hajviy she'rlar va qasidalar yozib shuhrat qozongan Abu Tayyib Ahmad ibn al Husayn al-Mutanabbiy (taxallusi Mutannibiy) she'rlaridan namunalari keltirgan. Umar Roduyoniyning fors tilida badiyyat ilmi haqida ilk asarlardan biri bo'lmish „Tarjumon ul-balog'a“ asarida ham shoir she'rga xos bir adabiy san'at sifatida qayd etgan irsoli masalni „Shoirning bir bayt ichida masal, otalar so'zi va yoki hikmatli so'zlar yozilmasi“ deya ta'riflantirib, arabcha va forsha namunalari keltirgan. Ibn Ebul-Isbo (tug'ilgan sanasi aniq emas 1189/1193-1256) ham Misrda tavallud topib, Eyyubiylar davrida yashab ijod qilgan. U ham irsoli masaldan foydalangan ammo u san'atning nomini keltirib o'tmasdan „So'z sohibining so'z ichida (she'rni nazarda tutib) otaso'zi, hikmat, aforizm o'rniga boshqa bir so'z yozilmasi“ shaklida ta'rif etadi. U ham boshqa arab yozuvchilari kabi namuna sifatida



boshqa yozuvchilarning asarlarini olgan. Masalan, u oyat va hadislardan, ayniqsa, Mutannibiy va Abu Tammom (taxminan 796-845) she'rlaridan namunalar keltirgan. Yuqorida sanab o'tgan shoirlarning she'rlari va asarlarini ijtimoiy tarmoqdan yoki elektron kutubxonalarda topish mumkin emas desa ham bo'ladi. Lekin Mutannibiyning ayrim o'rnaklarini ba'zi turk manbaalaridan topish mumkin ekan. Masalan bir veb-sahifada shunday misol keltirilgan:

Alçağa alçaklık vız gelir, hiç ölüye yara acı mı verir! (ما / ع ل يه الچوان ي سهل يهن من), ya'ni pastkash odamga pastkashlik hech gap emas, xuddi o'likka yara og'riq bermagandek deya anglashiladi. Bu yerda „o'likka yara og'riq bermas“ degan qadimiy hikmat yotibdi.

Endi boshqa yozuvchilarning fikrini ham ko'rib chiqaylik. Adabiyotshunos olim Atoulloh Husayniyning “Badoyi' us-sanoyi” asaridagi irsoli masal san'at haqida keltirilgan ilmiy ma'lumotlarga ko'ra ushbu san'atning ikki usul bilan hosil bo'ladi: “Birinchi va afzali uldurkim, masalning so'z va tartibini o'zgartirmay bergaylar. Ikkinchi yo'li uldurkim, masalda o'zgarish yuz berur”. Bunda muallif irsoli masal san'atining birinchi turida she'r tarkibida keltiriladigan maqol yoki hikmatli so'zning hech o'zgarishsiz berilishini, ikkinchi turida esa matnning mazmuni saqlangan holda she'r talabi bilan maqol yoki hikmatli so'zning shakli bir oz o'zgartirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. “G'aroyib us-sig'ar”da Navoiy irsoli masal san'atini yuzlab o'rinlarda o'ziga xos tarzda qo'llaganligi bilan hamda baytlar ravonligi, xalq maqollari va iboralaridan foydalanish orqali yetakchi g'oyani o'quvchiga teran yetkaza olganligi bilan ham alohida ajralib turadi. Navoiy “G'aroyib us-sig'ar” devonida irsoli masal san'atini uch xil holatda qo'llagan:

1) Bayt tarkibida qo'llanilayotgan maqol, hikmatli so'z “masal”, “masalkim”, “derlar”

jumlalari bilan keltiriladi:



Buki, derlar bordurur devor keynida quloq,

Ul fazo davrida ko'z yetguncha devor o'lmag'ay.

(611-g'azal, 5-bayt)

Bu bayt "Devorning ham qulog'i bor" maqoli bilan mazmunan mos keladi.

2) Maqol yoki matal yuqoridagi jumalarsiz aynan keltiriladi:

Muhabbat ko'yida bukim, gado shahni qilur oshiq,

Biaynih bor aningdekkim, gadoni oshiq etkay shah.

(558-g'azal 6-bayt)

Ushbu baytda qo'llanilgan irsoli masal "Muhabbatda shoh va gado bir" mazmunidagi xalq maqoli bilan ma'no jihatdan bir xil. Yoki:

Ishqing o'tinki, yoshurdum, el aro yoydi raqib,

Kim isitmani nihon tutsa qilur marg ayon.

(474-g'azal, 4-bayt)

„Kasalini yashsang isitmasi oshkor etar" xalq maqoliga mazmun jihatdan teng keladi.

3) Maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda, uning shakli bir oz yoki butunlay o'zgartiriladi:

Yugurma rizq uchun ne yetsa haqdin anglakim, komil

Ne kelturgil demish, ne g'aybdin kelganni qaytarmish..

(250-g'azal, 8-bayt)



Ushbu baytda „Bandaning ming yugurgani, Ollohning bir buyurgani” maqolining mazmuni saqlangan holda soʻzning shakli oʻzgargan. Navoiy yaratgan hikmatli soʻz va iboralar xalq maqollariga aylanib ketgan boʻlsa, obrazli badiiy iboralari xalqning ibratli hikmatlariga aylangan va oʻzbek tili frazeologiyasini boyitgan. Bunday birikma va iboralar orqali u ijtimoiy hayotdagi voqea - hodisalarining xalq donoligiga xos tipik xususiyatlarni umumlashtirib, qisqa, loʻnda va mazmunli ifodalash namunalarni koʻrsatdi va Navoiy oʻzining gʻazallari orqali oʻzbek adabiy tilining bitmas-tuganmas boyligini koʻrsatdi, uning istiqbollarini kelgusi taraqqiyot yoʻllarini belgilab berdi. Umuman olganda Ogahiy, Lutfiy, Navoiy va Gulhaniylar ijodida irsoli masal keng qoʻllanilgan. Masalan, Lutfiyning „Ayoqingʻa tushar har lahza gisu” gʻazalida har ikkinchi baytda irsoli masal qoʻllangan:

Ayoqinggʻa tushar har lahza gisu,

Masaldurkim: „Charogʻ tubi qorongʻu”.

Tuturmen koʻzki, koʻrsam orazingni,

Ki derlar: „Oqqan ariqqa oqar su(v)”.

Yuzungni tuttum ortuq oy-u kundin,

„Kishining koʻzidur, ore, tarozu”.

Koʻzing qonimdin iymanmas, ajabtur,

Ki: „Qoʻrqar, qaydakim qon koʻrsa hindu”.



Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,

Ki ayturlar: „Tiloganni — tilogu”.

O'zbek sovet adabiyotining taniqli namoyandasi, shoir, yozuvchi, pedagog, teatr va jamoat arbobi sanalmish Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) ijodida ham irsoli masal san'atini ko'ramiz:

To'g'ri so'zla ey o'g'ul,

Til burmag'il yolg'ong'a hech.

Bir masal bor to'g'ri so'zlar,

Boshini kesmas qilich.

Bu yerda „Boshinga qilich kelsa ham rost gapir” maqolini she'r talqinida keltirib o'tgan. Zamonamiz shoirlaridan Erkin Vohidov ham ko'plab she'riy san'atlardan mohirona qo'llab kelgan. Uning “Yoshlik devoni”ni varaqlar ekanmiz, undagi ba'zi g'azallarda irsoli masalni uchratishimiz mumkin:

Sen-ku Zuhrosan falakda,

Intizoringman faqat

Ne ajab tolpinsa ko'nglim,

Yo'q emish orzuda ayb.

Bu g'azal „Yo'q emish orzuda ayb” deb nomlanib, unda ko'kdagi Zuhroligingni, senga qo'lim yetmasligini bilsam ham qalbm senga talpinaveradi, chunki orzuda ayb yo'q degan maqol bejiz emas, degan g'oya ilgari surilgan. Yana xuddi shu devondagi . “Oyning o'n beshi qorong'u” nomli g'azalini tahlil qilsak:



*“Umrini oshiq hamisha
O‘tkazur orzu bilan”,
Oyning o‘n beshi qorong‘u,
O‘n beshi yog‘du bilan.*

Bu yerda ham „oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yoriq” maqoli mohirlik bilan qo‘llanilgan. Shoirning “Masal borkim...” deb nomlangan besh baytli g‘azali har bir baytda maqol qo‘llangani bilan ahamiyatlidir. G‘azal mavzusi an’anaviy bo‘lib oshiqning ishqiy iztiroblari, kechinmalarini o‘zida aks ettiradi. Mazkur g‘azalda maqollar quyidagi tarzda badiiy ifodasini topganini kuzatamiz:

“Og‘zi oshga yetganda, burni qonadi.” – Masal borkim, og‘iz oshga,

Burun toshga tegibdir, voh!

“O‘zgaga kulguncha, o‘z aybingni bil.” – Degaylar: o‘zgadin kulma,

O‘zingdan bo‘lmayin ogoh.

“Birovga choh qazigan o‘zi tushar.” – O‘zi tushgay emish oxir

Birovga kimki qazgay choh.

Ko‘rinib turibdiki, muallif xalq maqollarini badiiy sayqallagan holda she’rga olib kirmoqda. Mavlono Lutfiyning mashhur “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” deb boshlanadigan g‘azaliga hamohang tarzda yaratilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki irsoli masal qadim qadimdan ijodda qo‘llanib kelinayotgan she’riy san’at sifatida keng tarqalgan namoyandadir. Bu san’atning



ildizi qayerdan qachon boshlanganligi bizga oshyon bo'lmasada, hozirgi kunda undan foydalanib asar yaratuvchilar mohir so'z ustasi sanaladi desak yanglishmaymiz. Maqolada irsoli masalni shoirning fikrini yanada ravshanroq tushuntirishga yordam berishi, uning mumtoz adabiyotda o'rni haqida yorqin tushuntirilib o'tildi deb aytishimiz mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Hojiahmedov A., She'r sanatlarini bilasizmi? „Sharq“ nashriyoti.2001.Toshkent.
- 2) ХОДЖАЕВА Р.У. ЎРГАНИЛАЁТГАН АДАБИЁТ ПОЭТИКАСИ (Араб адабиёти асосида) 5A120101 – Адабиётшунослик мутахассислиги бўйича ўқув қўлланма. ТОШКЕНТ-2009.
- 3) <https://www.sabah.com.tr/egitim/irsali-mesel-nedir-soz-sanatlarindan-irsal-i-mesel-ne-demek-ornekleri-neler-e1-6013814>
- 4) <https://islamansiklopedisi.org.tr/irsal-i-mesel>
- 5) <https://islamansiklopedisi.org.tr/sealibi-ebu-mansur>
- 6) <https://islamansiklopedisi.org.tr/hilli-safiyyuddin>
- 7) <https://mutolaa.com/uz/book/g-aroyib-us-sig-ar>
- 8) <https://tafakkur.net/ayoqingga-tushar-har-lahza-gisu/lutfiy.uz>
- 9) <https://cyberleninka.ru>
- 10) <https://islamansiklopedisi.org.tr>